



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘ZBEKISTON DAVLAT SIYOSATIDA RADIKAL OQIMLARGA QARSHI KURASHNING ASOSIY YO’NALISHLARI

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Rustamova Sevinch Faxriddin qizi

SHDPI Tarix yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida radikal oqimlarga qarshi kurashda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy choralarning mazmuni va ahamiyati yoritiladi hamda milliy xavfsizlikni ta’minalash yo‘lidagi sa’y-harakatlarning natijalari haqida so’z yuritiladi.*

Kalit so’zi: *Ekstremizm, farmon, buzg’unchilik, radikal, BMT, Milliy strategiya, rezolyutsiya.*

Bugungi jamiyatning modernizatsiyalashuvi sharoitida hamda xalqaro yoki mintaqaviy miqyosda yuzaga kelayotgan muammoli vaziyat va mojarolarning mavjudligi holatida ekstremizm, radikalizm va terrorizm singari buzg’unchi mafkuralarga qarshi kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzular sirasiga kirmoqda. Bunga ekstremistik va radikal g‘oyalar ta’siriga tushib qolayotgan insonlarning aksarini yoshlar tashkil qilayotgani va ularning son jihatdan ortib borayotganini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Bugungi zamonda ekstremizm, terrorizm va radikalizm kabi vayronkor g‘oyalarni yoqlaydigan jamoa va tashkilotlarning a’zolari tomonidan zamonaviy axborot vositalaridan foydalanib, din niqobi ostida yoshlarimizni zo‘ravonlikka, milliy o‘zlik va oilaviy qadriyatlarni yo‘qotishga undash harakatlari bilan jamiyatda murosasizlik, tartibsizlik va radikal qarashlarning tarqalishi harakatlari davom etayotganini kuzatish mumkin. Bunday harakatlar zamirida esa terrorchi tashkilotlarning o‘z safini yanada kengaytirish maqsadlari borligi namoyon bo‘lmoqda.

Ta’kidlash lozimki, dunyo mamlakatlarida tahdidlarni oldini olish bo‘yicha turli yo‘nalishlar va tadbirdar jarayoni amalga oshiriladi. Xususan, O‘zbekistonda hukumatimiz tomonidan tegishli ishlar tashkil qilingan. Bu borada aholi, ayniqsa, yoshlar orasida radikalizm va ekstremizm g‘oyalarining tarqalishini oldini olishga qaratilgan oliy darajadagi hujjatlarni qabul qilish orqali belgilanib berilganini kuzatish mumkin. Jumladan, 2023-yil 28-fevraldaggi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturining 82-maqсади “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish” deb nomlandi. Mazkur yo‘nalish doirasida yosh avlodda ekstremizmga qarshi kurashishda qat’iy va barqaror immunitetni shakllantirish yuzasidan tadbirlarni tashkil etish vazifasi manfaatdor idoralar zimmasiga yuklatildi. Buning amaliy ifodasi sifatida “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash, dinlararo va





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



millatlararo totuvlikni mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm g‘oyalariga qarshi kurashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vakillari, O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi professor-o‘qituvchilari, yurtimizdagi Imom Buxoriy, Imom Termiziyy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining malakali xodimlarini jalg qilgan holda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlar o‘tkazilmoqda. Targ‘ibot tadbirlari respublikaning davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla fuqarolari yig‘ini hamda davlat va nodavlat tusidagi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim muassasasi vakillari uchun tashkil etilmoqda.

Mazkur tadbirlar doirasida 100 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarining talabalari orasida islomga yot bo‘lgan g‘oyalar, buzg‘unchilik qarashlari va umuminsoniy qadriyatlarni inkor qiladigan turli mafkuralarning tarqalishi oldini olish bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish amaliyoti joriy qilindi. Shu bilan birga, talabalarda vatanga muhabbat, ota-onasi va murabbiylarga hurmat singari ezgulik tamoyillarining ahamiyati haqida tushunchalar berib borish jarayonlari o‘zining ijobiy holatini namoyish qildi.

Shuningdek, 2021-yil 1-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida qabul qilingan 2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Milliy strategiyasi tasdiqlandi. Millliy strategiyaning qabul qilinishi tarixiy voqeа sifatida talqin qilish mumkin. Sababi, ushbu hujjat yangi O‘zbekiston sharoitida buzg‘unchi illatlarga qarshi kurashishning o‘ziga xos yo‘nalishlarini belgilab berdi. Strategiyada ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi mavjud tajriba, shuningdek, mintaqalarda davlatlaridagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha holatning qiyosiy tahlillari tadqiq qilingan holda Markaziy Osiyoda ekstremistik va terrorchilik faoliyatining o‘ziga xos jihat, milliy, ijtimoiy, diniy holatlari o‘rganildi. Milliy strategiyaning ustuvor yo‘nalishlarini quyidagilar etib belgilandi:

- ekstremizm va terrorizm g‘oyalarini tarqalishining oldini olish maqsadida vatanparvarlik, an’anaviy qadriyatlar va bag‘rikenglik mafkurasini targ‘ib qilish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g‘oyalarini tarqalishining oldini olish;
- ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;
- uzoq muddat xorijda bo‘lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g‘oyalarini ta’siridan himoya qilish;
- Internetdan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish;
- fuqarolik jamiyati institutlari va OAVlarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalg qilish;
- ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta’qib va javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ- huquqiy bazani takomillashtirish; ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish.

2022-yil 3-4-mart kunlari Toshkent shahrida “**BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorligi**” mavzuida o‘tkazilgan xalqaro konferensiya g‘oyat muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu global anjuman mintqa mamlakatlari va jahon hamjamiyati sa’y-harakatlarini terrorizmga qarshi hamjihatlik bilan kurashish uchun birlashish hamda faollashishga da’vat etishga qaratilgan. 2021-yil 16-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida “Terrorizm va inson huquqlari” nomli 76/169-sonli rezolyusiya qabul qilindi. Rezolyusiyada terrorizm hamda terrorizm uchun sharoit yaratadigan zo‘ravonlik ekstremizmining barcha xurujlari, usul va amaliyotlari, qaysi shakl va ko‘rinishda yuz berishi, qayerda va kim tomonidan sodir etilishi, qanday motivatsiya yo moliyaviy, moddiy yoki siyosiy qo‘llab-quvvatlash negizida sodir etilishidan qat’i nazar, xalqaro huquqqa mutlaqo mos kelmaydigan xatti-harakat sifatida so‘zsiz qoralanishi ta’kidlangan. BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasida, shuningdek, terrorizm hamda terrorizm uchun sharoit yaratadigan zo‘ravonlik ekstremizmi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga g‘ov bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Bu salbiy omillar tufayli esa, bir tomondan, insonning siyosiy, shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish yo‘lida to‘silalar yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan, davlatlarning hududiy yaxlitligi va xavfsizligi, hukumatlarning barqarorligi, huquq va demokratianing ustuvorligi, yanada tashvishlanarlisi, dunyoda farovon jamiyatlar, xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikning mavjudligi ulkan tahdid ostida qoladi.O‘zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurash jamiyat xavfsizligini ta’minalash va milliy barqarorlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim vazifalardan biridir. Ushbu siyosatning asosiyo yo‘nalishlari aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, radikalizmning oldini olish uchun ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, diniy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Huquqiy asoslarga tayanib, davlat radikal oqimlarning paydo bo‘lish sabablari va sharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha kompleks choralarini amalga oshirmoqda. Yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning ta’lim, tarbiya va ish bilan bandligini ta’minalash bu boradagi muhim qadamlardir. Shu bilan birga, radikal g‘oyalarning internet va axborot texnologiyalari orqali tarqalishiga qarshi kurashning samaradorligi oshirilmoqda. Mazkur siyosat orqali O‘zbekiston radikalizm va ekstremizmning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurashishda xalqaro hamjamiyat bilan faol muloqot olib boruvchi davlat sifatida o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga erishmoqda.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Niyozaliyev “Radikalizmga qarshi kurashda davlatimiz tajribasi va tamoyili”.
<https://kukaldosh.uz/19/10/2023/11637>
2. PF-6255-son Farmon. Экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Миллий стратегия қабул қилинди | NORMA.UZ
3. Ulug‘bek JO‘RAYEV “Jaholatga qarshi ma’rifat”. <https://iau.uz/oz/news/2220>
4. M.Shamsiddinov “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda O’zbekiston tajribasi”. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda O’zbekiston tajribasi - Hidoya
5. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
6. Azamova S. UMUMTA’LIM MAKTAB O ‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
7. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – С. 743-749.
8. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – С. 984-989.
9. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – Т. 10. – №. 1S. – С. 5000-5006.
10. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 13. – С. 7-10.
11. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o’g’li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 40. – №. 4. – С. 135-139.
12. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o’g’li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 40. – №. 4. – С. 135-139.
13. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – Т. 4. – №. 07. – С. 30-35.
14. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION
//International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

15. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – С. 20-24.
16. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
17. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME’MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
18. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО-ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.

